



XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

2022 - yil 9 - dekabr

VI-47-122-11-158-K/22

Rishton tumani hokimligi

Rishton tumanida 2022 yilni 10 oyi davomida Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi vazifalar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021 yil 14 dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishini 55-son bayonida hamda 2022 yil 27 yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-sonli qarorida Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar hamda hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish, 2022 yilda mehnat balansi va bandlik dasturini shakllantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni tumanda ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan "Yo'l xarita"si doirasida tizimli ishlar amalga oshirib kelingan.

Rishton tumanida 2021 yilda jami xizmatlar xajmi 475,7 mlrd so'm ga bajarilib, o'sish sur'ati 119,7% ni tashkil etgan. Aholi jon boshiga 2305 ming so'm dan to'g'ri kelgan.

2022 yilda tumanda xizmat ko'rsatish hajmini 601,5 mlrd so'mga yetkazish yoki 118,4% ga oshirish rejalashtirilgan. 2022 yilni 10 oyida xizmatlar hajmi 523,1 mlrd so'mga yoki 114,5% ga bajarilgan.

Tumanda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 93,6 mlrd so'mga teng 303 ta loyihalarni amalga oshirish xisobiga 910 ta yangi ish o'rni yaratilishi belgilangan.

Jumladan:

- Qishloq xo'jaligi soxasida (tomorqa xizmati, mini texnikalar orqali xaydov, o'simliklarga dori sepish, muzlatgichli sig'im ijara xizmati, veterenariya xizmati)

13ta;

- Uy mehmonxonalari 4 ta;
- Nodavlat maktabgacha ta'lim 11 ta;
- Nodavlat tibbiyot muassasalari 9 ta;
- Chakana savdo ob'ektlari 136 ta;
- Umumiy ovqatlanish ob'ektlari 39 ta;
- Maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari 34 ta;
- Boshqa xizmat ko'rsatish ob'ektlari 57 ta.

Joriy yilni 10 oyida umumiy qiymati 53,8 mlrd so'm bo'lgan 243 ta xizmat ko'rsatish loyihalarini amalga oshirilishi xisobiga 719 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Jumladan:

- Qishloq xo'jaligi soxasida (tomarqa xizmati, mini texnikalar orqali xaydov, o'simliklarga dori sepish, muzlatgichli sig'im ijara xizmati, veterenariya xizmati) 8 ta loyiha;
- Uy mehmonxonalari 3ta loyiha;
- Nodavlat maktabgacha ta'lim 11 ta loyiha;
- Nodavlat tibbiyot muassasalari 1 ta loyiha;
- Chakana savdo ob'ektlari 111 ta loyiha;
- Umumiy ovqatlanish ob'ektlari 33 ta loyiha;
- Maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari 19 ta loyiha;
- Boshqa xizmat ko'rsatish ob'ektlari 57 ta loyihalar ishga tushurildi.

Tumanning markaziy ko'chalarini savdo, ko'ngilochar, gastronomik, turizm va san'at yo'nalishlariga ixtisoslashgan maxsus savdo va ko'ngilochar ko'chalarga aylantirish maqsadida, tumanni Ar-Roshidoniy ko'chasida tunu-kun ishlaydigan qiymati 125.0 mlrd.so'm bo'lgan 80 ta xizmat ko'rsatish loyihalari ishga tushirildi va 260 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Ushbu mahallalarda soliq to'lovchilarning aylanmadan olinadigan soliq to'lovi

stavkasi 2022 yil 1 apreldan boshlab 1% etib belgilanganligi hisobiga, 127 nafar yuridik shaxslar hisobida 739 mln so‘m 109 nafar yakka tartibdagi tadbirkorlarda 766 mln so‘m jami 1,5 mlrd so‘m mablag‘ soliq to‘lovchilar ixtiyorida qolmoqda.

Bundan tashqari, qarorga asosan, yer va mulk soliqlari stavkasi 90% ga kamaytirilishi natijasida, joriy yilda turizm hududida joylashgan 327ta noturar obe’ktlarga hisoblangan 770.9 mln so‘m mablag‘ tadbirkorlar ixtiyorida qolmoqda.

Shuningdek, mahallada turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlanib, tumanining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tumanda har tomonlama qulay bo‘lgan turistik xizmatlarni tashkil etish maqsadida tumanda 12 ta mahallalar tanlab olinib, ushbu mahallalarni infratuzilmalarni yaxshilash uchun 22,2 mlrd so‘m ajratilishi belgilangan.

Xizmat sohasini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan loyihalarni amalga oshirilishi natijasida 2022 yilni yakuniga xizmatlar hajmi 601,5 mlrd so‘mni, o‘sish 118,4%ni tashkil etadi. Aholi jon boshiga 2,3 mln so‘mdan 2,9 mln so‘mga yetkaziladi.

Tumanda xizmatlar soxasini rivojlantirish bo‘yicha rejalashtirilgan 303 ta loyihalarni ijrosi yuzasidan tuman Kengashiga taqdim etilgan “Manzilli ro‘yxat” tuman Kengashi deputatlari tomonidan joylarga chiqib MFY raislari bilan hamkorlikda o‘rganilgan. O‘rganish davomida Manzilli ro‘yxatda MFY lar kesimida tashkil etilgan deb ko‘rsatib o‘tilgan xizmat kursatish ob‘ektlarida tafovutlar mavjudligi ma‘lum bo‘lgan. Jumladan: “Manzilli ro‘yxat”da “Toshog‘olliq” MFY xududida 8 ta, “Qozi Axror” MFY xududida 3 ta loyihalar amalga oshirilganligi qayd etilgan bo‘lsada, o‘rganish davomida “Toshog‘olliq” va “Qozi Axror” MFY xududlarida 1 tadan loyihalarni amalga oshirilgan ob‘ektlari mavjudligi aniqlangan. Ajablanarlisi “Toshog‘olliq” MFY xududida ko‘rsatib o‘tilgan 8 ta loyihadan 7 tasi mavjud emasligi, “Qozi Ahror” MFY xududida “Komilov Nodirjon” ni 600 mln so‘mlik “Uy mehmonxonasi” loyihasi 01.10.22 yil kuni amalga oshirilganligi kursatib o‘tilgan bulsada, ushbu uy mehmonxona loyihasi nafaqat “Qozi Axror” MFY xududida balki boshqa MFY xududlarida ham mavjud emasligi ma‘lum bulgan.

Yuqoridagilarni va sessiya muhokamasiga kiritilgan masalalar bo‘yicha deputatlar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunini 6 va 24 moddalariga muvofiq xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. Rishton tuman hokimini 1-o‘rinbosari A. Mustafaqulovni “Tumanda xizmatlar soxasini rivojlantirish bo‘yicha joriy yilni 10 oyi mobaynida amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi vazifalar to‘g‘risida”gi Axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi sektorlar rahbarlari S.Soliyev, R.Madaliyev, X.Toshpo'latov, D.Rahimov va tuman hokimini 1-o'rinbosari A.Mustafaqulovlarga;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021 yil 14 dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishini 55-son bayonida hamda 2022 yil 27 yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-sonli qarorida belgilangan vazifalarni tumanda ijrosini tashkillash va nazorat qilish;

-Daxldor mas'ullar bilan xamkorlikda "Xizmat soxasini rivojlantirish" bo'yicha tumanda ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi"da amalga oshirilishi belgilangan loyihalarni qayta o'rganib, amalga oshirilishi kechikayotgan loyihalarni sabablarini aniqlash va ushbu loyihalarni amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha tegishli chora tadbirlar belgilash va ijroga qaratish vazifalari yuklatilsin.

3. "Manzilli ro'yhat"ga noto'g'ri ma'lumotlar kiritilishiga yo'l qo'ygan tuman hokimligi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ini o'rinbosari B.Odilov qattiq ogoxlantirilsin,

4. Tuman hokimini 1-o'rinbosari A.Mustafaqulovga, daxldor tashkilot, muassasa va idora mas'ullari bilan hamkorlikda:

- "Manzilli ro'yhat" da amalga oshirilgan deb ko'rsatib utilgan xizmat soxasidagi ob'ektlarni joylashuvi, ularni faoliyat yo'nalishlari hamda tadbirkorlarni manzillari bo'yicha 16.12.2022 yil kuniga qadar qayta xatlovdan o'tkazish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish:

- tumanda xizmat soxasini rivojlantirish borasidagi "Yo'l xaritasi"ga kiritilmagan shu jumladan imkoniyati mavjud bulgan MFY larda xizmat soxasi bo'yicha yangi loyihalarni "Yo'l xaritasi" ga kiritish va amalga oshirish choralarini kurish tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi Qonunida belgilangan deputatning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021 yil 14 dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishini 55-son bayonida hamda 2022 yil 27 yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-sonli qarorida belgilangan vazifalarni tumanda ijrosi yuzasidan deputatlik nazoratini olib borish va belgilangan tartibda xizmat soxasini rivojlantirishga mas'ul bulgan rahbarlarni hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashini "Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha" doimiy komissiya yig'ilishlarida va sessiyalarida muhokama etib borish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari A.Dehqonovga, tumanda xizmat soxasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni OAV larida yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur Kengash qarori ijrosini ta'minlash tuman hokimining 1-o'rinbosari A.Mustapfaqulov, tumanda xizmat soxasini rivojlantirish borasidagi "Yo'l xaritasi" ga kiritilgan loyihalarni ijrosiga mas'ul bo'lgan rahbarlarga, nazorati tegishliligicha xalq deputatlari tuman kengashini doimiy komissiyalari (D.Rahmonqulov, B.To'ychiyev, M.Normatov, Q.Aminov, A.G'ofurov, A.Sobirov,) ga yuklatilsin.

Tuman hokimi



С.Солиев